

## MAMLAKATIMIZ OLIMLARI TOMONIDAN TALABALAR AKADEMİK O'ZLASHTIRISHI DETERMINANTLARINI TADQIQ ETILISHI

Jabborova Malohat Azimovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.037>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar akademik o'zlashtirishi determinantlarining mamlakatimiz psixologiyasida o'r ganilganlik holati, oliv o'quv yurtlaridagi ta'lif samaradorligini keskin oshirish, o'qitishning yangi ilg'or faoliyusullarini qo'lllash, oqilonaga vositalardan foydalanish ahamiyati to'g'risidagi o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari tahlil qilingan.*

*Tayanch so'zlar: ta'lif, akademik o'zlashtirish, o'quv samaradorligi, talaba, texnologiya, individual psixologik xususiyatlar, o'quv motivlari.*

## ИССЛЕДОВАНИЕ УЧЕНЫХ НАШЕЙ СТРАНЫ ДЕТЕРМИНАНТ АКАДЕМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

Джабборова Малоҳат Азимовна,

учитель Шахрисабзского государственного педагогического института

*Аннотация: В данной статье анализируется состояние изученности детерминант академической успеваемости студентов в психологии нашей страны, научные взгляды узбекских учёных на важность резкого повышения эффективности образования в высших учебных заведениях, применения новых передовых, активных методов обучения и использование рациональных инструментов.*

*Ключевые слова: образование, академическое мастерство, эффективность обучения, обучающийся, технология, индивидуально-психологические особенности, образовательная мотивация.*

## RESEARCH OF THE DETERMINANTS OF STUDENTS' ACADEMIC DEVELOPMENT BY SCIENTISTS OF OUR COUNTRY

Jabborova Malohat Azimovna,

teacher of Shahrisabz State Pedagogical Institute

*Abstract: This article analyzes the state of study of the determinants of students' academic achievement in the psychology of our country, the scientific views of Uzbek scientists on the importance of dramatically increasing the effectiveness of education in higher educational institutions, applying new advanced, active methods of teaching, and using rational tools.*

*Key words: education, academic mastery, educational efficiency, student, technology, individual psychological characteristics, educational motivations.*

Kirish. Jahon ta'lif muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'quv faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan ko'plab zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo'lsada, o'quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'r ganish psixologiya olamida dolzarbligicha qolmoqda. Buning uchun ta'lif oluvchining fikr va xulq strategiyasini inobatga olib, shaxsning, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini yo'naltirish, pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni to'laligicha talabaning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida barkamolligini ta'minlash, tafakkur va dunyoqarashini boyitish, akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish masalalari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lif jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, amaliy usullarini takomillashtiruvchi, talabalik davrida individual imkoniyatlar samarali ro'yobga chiqarilishini belgilab beruvchi omillarni o'r ganish asosida pedagogik-psixologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek psixologiyasining yetakchi olimlari M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, N.S.Safayev, Z.T.Nishanova, D.G.Muxamedova, A.I.Rasulov, B.M.Umarovlar tomonidan ta'lif jarayoni, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari va uning psixologik xususiyatlari o'r ganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida umumilmiy usullardan tizimlilik, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, taqqoslashdan foydalanildi. Talabalar akademik o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi omillar yurtimiz olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko‘proq oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarining tayyorgarlik mahoratiga bog‘liqidir. Shuning uchun o‘qitishning yangi ilg‘or, faol usullarini qo‘llash, oqilona vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o‘qituvchilar o‘rtasida uzlusiz ta’sir o‘tkazish jarayoni hukm surishi lozim.

O‘qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyatini negizida o‘quv-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muammosi yotadi. Bu muammo oliy ta’lim psixologiyasida juda kam tadqiq qilingani sababli xuddi ana shu muammo yuzasidan kengroq mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim sifati ta’lim faoliyatining shakllantirishiga bog‘liq. O‘quv faoliyatini shakllantirishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganish jahon va o‘zbek psixologiyasida dolzarbligicha qolmoqda. O‘zbek psixologiyasining yetakchi olimlari M.G.Davletshin, E.G.G.oziyev, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, N.S.Safayev, Z.T.Nishanova, D.G.Muxamedova, A.I.Rasulov, B.M.Umarovlar tomonidan ta’lim jarayoni va uning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan, ammo talabalar akademik o‘zlashtirishining psixologik determinantlari muammosi yuzasidan alohida izlanishlar amalga oshirilmagan.

O‘zbek psixologiyasining yetakchi olimi E.G.G.oziyev [8] oliy ta’lim psixologiyasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, asosan, talabalarning psixologik xususiyatlari, talabalar o‘quv faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, ta’limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish, o‘qituvchi va talabaning hamkorligi – ta’lim samaradorligining muhim omili ekanligi hamda talabalar hayoti va faoliyatini o‘zgartiruvchi asosiy omillar haqida asosli mulohazalar yuritgan..

Psixolog olimning oliy ta’lim muassasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligining dolzarb muammolari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlikning sifati asosan uchta muhim omilga bog‘liqidir:

1. Talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalarning puxtaligi, barqarorligi va mustahkamligiga;

2. O‘quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish sifatiga;

3. Talabalarni mustaqil (faol va ijodiy) ravishda oqilona bilim olishga o‘rgatish va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar berib borishga.

Olimning ta’kidlashicha, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan, uning sifat darajasini orttiradigan zarur shart-sharoitlarni besh jabhaga ajratish mumkin.

1. Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va xududiy xususiyatlariga asoslanib uni qayta qurish maqsadga muvofiqligi.

2. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni o‘qitish, shaxs sifatida shakllantirish jarayoni hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera olishi.

3. Oliy maktab o‘quv rejasi, dasturi va ularga asoslangan darsliklar, qo‘llanmalar, ishlanmalar, ma’ruza matnlari hozirgi kun hayot tarzini, fan yutuqlari va zarur axborotlarni, ilg‘or tajribalarni, mamlakatimiz xududlari xususiyatlarini to‘liq va asosli aks ettirishi.

4. Talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o‘rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish.

5. Talabalarni milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash orqali ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi yuksak his-tuyg‘ularni shakllantirish.

Shuningdek, olim o‘z izlanishlariga asoslanib, talabalarning auditoriyadan tashqari faoliyatlarida bilimlarni o‘zlashtirishni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlari; talabalarning umumkasbiy fanlar asoslarini o‘rganishga yo‘naltirilgan qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyati va dunyoqarashiga xos xususiyatlarni e’tiborga olgan holda, ularga zarur maslahat va tavsiyalar berib borish tartiblari haqida; talabalarning psixologik xususiyatlari, tafakkur xususiyatlari va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish

vositalari to‘g‘risida ham qator tavsiya va ilmiy yechimlarni olg‘a suradi. Olimning fikricha, komil inson bo‘lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo‘lg‘usi o‘qituvchi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat va qadriyatlar tizimini egallashi hamda kelajak rivojini ta’minlashi uchun avvalo o‘zlarida mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni va aqliy faoliyat usullarini shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

E.G‘.G‘oziyev ko‘p yillik ilmiy izlanishlariga tayanib, talabalarning kelgusi faoliyatida yetakchi va ustuvor qiymatga ega milliy xususiyatlarini aniqlaydi va ularni maqsadga muvofiq ravishda tartibga keltirib, tavsif beradi:

- 1) andishalilik,
- 2) bag‘rikenglik,
- 3) dilkashlik,
- 4) samimiylilik,
- 5) ibrat-namunaviylik,
- 6) sabr-toqatlilik,
- 7) saxovatlilik,
- 8) pedagogik odoblilik,
- 9) ma’naviy yuksaklik,
- 10) kasbga sadoqatlilik,
- 11) yuksak tuyg‘ularni egallaganlik,
- 12) ijtimoiy faollik,
- 13) nutqiylar qobiliyatatlilik,
- 14) tashabbuskorlik,
- 15) tashkilotchilik.

Mazkur xususiyatlar kelajakda talabalarning kasbiy faoliyati samarasini ta’minlashning muhim omillari sifatida xizmat qiladi.

V.M.Karimova oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish sohasida olib borgan tadqiqotlarida talabalarini kasbiy tayyorlash, ularda zaruriy sifat va fazilatlarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy xususiyatlar muhim o‘rin egallashini e’tirof etadi [2].

V.M.Karimova ham o‘z tadqiqotlarida talabalar o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo talaba-o‘qituvchi o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartirish, talabani ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish lozimligini ko‘rsatadi. Buni samarali tashkil etishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta’kidlaydi.

Birinchidan, ta’lim beruvchi (ya’ni, o‘qituvchi) yoshlarni qanday bo‘lsa shundayligicha – iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok qilishga, tabiiy tarzda qabul qilishga o‘rganmoqlari lozim.

Ikkinchidan, har bir ta’lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil qilishi va ulardagi psixologik imkoniyatlarni e’tiborga olishi zarur.

Uchinchidan, ta’lim muassasasida o‘qitishning yangicha texnologiyasi va yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat talaba shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e’tibor bilan qarashdir.

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonida guruhda psixologiyaning faol, xususan-munozara, dialog, breynshtorming, o‘yin va boshqa interfaol metodlaridan keng va o‘rinli foydalanish talabaga ko‘proq o‘z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Beshinchidan, erkin va mustaqil fikrlash uchun psixologik “fazo” va “makon” tushunchalarining ahamiyatini hisobga olib, guruhda ishlash qonunlari va ijtimoiy psixologik mezonlarni to‘la inobatga olish zarurligini alohida qayd etadi.

G‘.B.Shoumarov ta’lim tizimida psixologik xizmat va uni takomillashtirish muammolariga oid hamda talabalar o‘zlashtirish sifatlarining rivojlanganlik darajasini jahon andozasiga ko‘tarish va uyg‘unlashtirish sohasidagi tadqiqotlarida bir qator qimmatli g‘oyalarni va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalarni ilgari suradi. Olimning fikricha, talabalar o‘rganayotgan kasbga oid tayyorgarlikning belgilangan darajasiga erishishi uchun o‘zida mavjud bo‘lgan individual-psixologik imkoniyatlar va oliy ta’lim muassasasida mazkur kasbni egallah uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlardan unumli foydalanishi lozim.

G‘.B.Shoumarov [3] pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalar kasbga yo‘naltirilganlik bosqichlarida ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda psixologik xizmatni belgilangan

talab va me’yorlar darajasida yo‘lga qo‘yish zarurligini ham alohida ko‘rsatib o‘tadi.

B.R.Qodirov [3] ko‘p yillik ilmiy izlanishlarida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta’minlashda (xususan, o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda), o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligini oqilona yo‘lga qo‘yishda tashxis markazi xodimlari va shu sohaga yo‘naltirilgan psixologik xizmatning ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlagan. Buning uchun mazkur sohaning mas’ul xodimi:

talabaning individual-psixologik imkoniyatlarini har tomonlama chiqur o‘rganib, shunga mos o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishini;

kasbiy tayyorgarlikning har bir qadamida o‘qituvchining talaba bilan ishlashi va muloqotga kirishishining mos va qulay usullarini tanlashi va o‘zgartirib turishini;

o‘quv-tarbiya jarayonlarini talabalarning psixik rivojlanganlik darajasi, yosh va individual psixologik xususiyatlari binoan moslash hamda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda shaxsiy va kasbiy psixologik imkoniyatlarning namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda ta’lim subyektlariga yaqindan yordam berib borishi zarurligini ko‘rsatib o‘tadi.

A.M.Jabborov tadqiqotlarida samarali o‘zlashtirishning muhim omillari, ta’lim samaradorligini ta’minlovchi zarur milliy-madaniy omillar, o‘qituvchining kasbiy muhim sifatlarining shakillanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy omillar izchil o‘rganilgan. Muallif – ta’limining bosh vazifasi o‘rganuvchilarning fan asoslarini faol va ongli o‘zlashtirishini ta’minlashdir, o‘zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo‘lib, odamning bilihiga oid olamdagи xilma-xil noma’lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi, deb baholaydi.

A.M.Jabborovning izohlashicha: “No’malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o‘zlashtirish jarayoni, asosan, uchta yo‘nalishga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan o‘zlashtirilayotgan materialning mazmun mohiyati o‘zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarligiga, ahamiyatliliga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog‘liqdir. Ikkinchidan, ta’lim jarayonini boshqarayotgan ma’sul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog‘liqdir. Uchinchidan, talabaning aqliy taraqqiyoti darajasiga, emotsiyonal – irodaviy holatiga, o‘qishga nisbatan qaror topgan individual psixologik xususiyatlari, qiziqishi va havaslari bilan belgilanadi” [1]. Ana shu uchta yo‘nalish to‘la ta’minlangan ta’lim jarayonidagina samarali o‘zlashtirish hosil bo‘lishi allaqachonlar rivojlangan mamlakatlar fani tajribasida isbotlangan.

Olim o‘qituvchi esa ta’lim oluvchilardagi individual psixologik xususiyatlarning har xilligini e’tiborga olib, beradigan izlanish va fikrlash yo‘llanmasi bilan har bir ta’lim oluvchida o‘zligini mumkin qadar yorqinroq namoyon etish imkoniyatini yaratishi haqida fikr bildiradi. Natijada tahsil olayotganlarda ijodiy musobaqa ruhi har bir mashg‘ulotda yetakchilik qiladi, o‘zlashtirish samarodorligiga ijobiy ta’sir etadi.

A.M.Jabborov “O‘qituvchi etnopsixologiyasi” nomli monografiyasida ta’lim oluvchilarning samarali o‘zlashtirishiga oid bir qator muhim mulohazalarni ilgari surgan:

1. Har bir mashg‘ulotda (ma’ruza, seminar, amaliy, auditoriyadan tashqari) o‘rganuvchi o‘qituvchi (darslik) talabi asosida unga berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlashi emas, balki uning yo‘llanmasi bilan yangi bilim hosil qilishi, kashf etishi lozim.

2. Darsda o‘rganuvchi sust tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘rganuvchi og‘zidan chiqqan har bir so‘z, fikr, hukm, bayon uning o‘ziniki bo‘lmog‘i shart. Albatta, o‘rganuvchidan tug‘ilgan bu fikr olamshumil kashfiyot yoki biror chigal muammoning yechimi emas, lekin o‘qituvchi (darslik) bergen axborotning soddagina takrori ham emas.

3. O‘qituvchining ta’lim oluvchiga beradigan izlanish va fikrlash yo‘llanmasi shunday bo‘lmog‘i lozimki, auditoriyadagi ta’lim oluvchilarning izlanish va ijod mahsuli aynan bir xil bo‘lmasligi – mohiyatan bir yo‘nalishda bo‘lib, lekin shaklan har xil bo‘lmog‘i kerak.

4. Dars jarayonida (topshiriqni bajarish va uni auditoriyada tahlil etishda) ta’lim oluvchi o‘qituvchi yo‘llanmasi asosida izlanar, fikr qilar, biror narsani topar, biror hukmga kelar ekan u o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilmog‘i zarur. Mashg‘ulotning tashkil etishi va o‘quv materiali bunga keng yo‘l ochib bermog‘i zarur. Ta’limning onglilik omili mana shularda namoyon bo‘ladi.

R.I.Sunnatova o‘z tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasasi talabalari kasbiy sifatlarining shakillanish davrida o‘zini o‘zi anglashiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risida, mazkur xususiyatlarning o‘quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta’minlashga va pedagogik faoliyatni takomillashtirishga

ta'siri haqida yangicha yondashuvlarni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, talabalar kasbiy sifatlarining shakillanish davrida (asosan 3-4 kursda) o'zini o'zi anglashi, o'quv-tarbiya jarayoni va kasbni egallashga ongli munosabatda bo'lishi, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga xos zaruriy pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollanishi uning pedagogik faoliyatini samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Z.T.Nishonova ilmiy izlanishlarining natijasi sifatida talabalarning o'quv-tarbiya jarayonlarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etishga tayyor va shu asosda talabalarda mustaqil fikrlash, o'rganayotgan har bir muammoga ijodiy yondashish malakalarini shakllantirishning mexanizmlari haqida fikr yuritadi. Olimaning fikricha, bu murakkab jarayonning muvaffaqiyatlari rivojlanishi oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligining turli shakllarini tashkil qilishga, ularning nazariy va amaliy, umumiy va individual bilish faoliyatlarining qulay tarzda uyg'unlashuviga bevosita bog'liqidir. Z.T.Nishonova ishlab chiqqan treninglarda o'quv faoliyatining guruhiy shakllari amalga oshirilgan. Bu esa o'z navbatida ta'limda har bir o'zlashtiruvchi uchun yuksak faollik va mustaqillikni ta'minlaydi. Jumladan, bo'sh o'zlashtiruvchi talabalar uchun ham qulay vaziyat yaratadi, har bir subyektda o'zini o'zi namoyon qilish ehtiyojini qondirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Olima ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchining roli shundan iboratki, u talabalarga tegishli ustankovkani hosil qilishi, nimani vaqtinchada, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlar bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'rganuvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

Z.T.Nishonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'qitishning emotSIONALLIGI samarali o'zlashtirishni, ta'limning muvaffaqiyatlilagini ta'minlovchi omillardan biri deb tavsiflanadi. Olimaning fikricha [4], ta'lim berish jarayoni emotsiyonal jarayon. Agar talabalarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni talabalar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap ularning psixik holatlari, ya'ni muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida boradi, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. Talabalar emotsiyonal ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

Z.T.Nishonova e'tiroficha, ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq: ta'lim mazmuniga, o'quv rejali, dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga, ta'lim metodikalarini takomillashganligiga, o'qituvchi mahoratiga, tahsil oluvchining individual psixologik xususiyatlariiga.

N.S.Safoyev [7] tadqiqotlari talaba yoshlarda milliy o'zlikni anglashning psixologik mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Muallifning ta'kidlashicha, milliy o'zlikni anglash murakkab ijtimoiy fenomen sifatida, to'rt asosiy komponentdan tarkib topgan: 1. Kognitiv, 2. Affektiv, 3. Diniy, 4. Xulq-atvorlik. Psixologik faol subyektning ijtimoiy xulq-atvorida ushbu komponentlar o'zaro bog'liq holda rivojlanadi va "Vijdon" falsafiy kategoriyasiga jamlanadi. Psixologik nuqtai-nazardan "vijdon" kategoriyasi tahlil qilinganda, subyektning ma'naviy olamini qamrab oladi va insonning ichki ijtimoiy xulq-atvori sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat talabalar uchun kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning o'zlashtirishdagi barqarorligi va pedagogik jarayonlardagi faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

A.I.Rasulovning [6] ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi hamkorligining psixologik muammolari sohasida olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlari va hamkorligi "o'qituvchi-ta'lim oluvchi" ijtimoiy-psixologik rollaridan kelib chiqqan holda tarkib topgan bo'lib, ular o'rtasidagi "subyekt-obyekt" qabilidagi munosabat uning mohiyatini oldindan belgilab berishning imkoniyatiga egadir, chunki ta'limda subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatda cheklanishning mavjudligini ko'rsatadi. Ta'lim oluvchi buni "birinchi" bo'lib his qiladi va shunga muvofiq ravishda o'qituvchilar shaxsini baholaydi. Bu esa o'qituvchining muomalada teng huquqli sherik hamda maslakdosh sifatida baholanishga muayyan darajada quyi baho olishga olib keladi.

A.I.Rasulovning tadqiqotida o'qituvchilarning ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarida quyidagi shaxslilik va individuilik xususiyatlari: nevrotizmning o'rtacha darajasi, kuchsiz depressivlik, vijdonlilikning yuqori darajasi, turg'unlashuv, xulqdagi ehtiyyotkorlik, konformlik, muloqotmandlikning

yuqori bahoga egaligi, bevosita hissiy hamda intuitiv mulohaza yuritishga moyillik, nazokatlilikning o‘rtacha ko‘rsatkichi namoyon bo‘ladi.

M.M.Mavlanov [3] tadqiqotlarida oliy o‘quv yurtlari ta’limi jarayonida talabalarda (bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida) tashxisiy malakalarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Olimning e’tirof etishicha, kasbiy tayyorgarlik bosqichida tashxisiy bilim-malakalarni egallamagan talabalarga yoshlari taqdirini ishonib topshirish mumkin emas. Shu bois, pedagoglarni tashxisiy bilim va malakalar bilan qurollantirish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi. M.M.Mavlanov tadqiqotlari natijalariga tayanib, ularning samarali faoliyatini ta’minlash uchun diagnostik malakalarning me’yoriy modelini aniqlaydi. Me’yoriy model mezonzlariga binoan kasbiy tayyorgarlikni egallagan talabalarda diagnostik malakalar: yuqori, yaxshi, o‘rta va past darajada shakllangan bo‘lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik bosqichida talabalar diagnostik malakalarning yuqori va yaxshi darajalarini egallashga erishishi uchun didaktik tizimning asosiy komponentlarini tashkil etgan: psixologiya, pedagogika, maxsus bosqichlar hamda pedagogik amaliyot bilan bog‘liq diagnostik tuzilishga ega bo‘lgan zaruriy materiallarni o‘zlashtirishlari lozimdir.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalari talabalarining psixologik jabhalari: pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalar shaxsi professionallashuvining psixologik xususiyatlari vatanimiz psixologlari (Jalilova S.X., 1994), talabalar o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik asoslari (Ruxiyeva XA., 1993), talabalar axloqiy o‘z-o‘zini anglashning o‘quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti (Gappirov B.T., 1993), talabalarning kasb tanlashga tayyorgarligining psixologik jihatlari va kasbiy tashxis (Qodirov K.B., 2001) va boshqalar tomonidan keng o‘rganilgan.

Vatanimiz psixolog olimlari tomonidan olib borilgan yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlarda ilm-fan rivoji, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va bilimli, malakali yetuk kadrlar yetishtirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarador jarayonga aylantirish, o‘quv faoliyatini optimalligini oshirishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarни o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, talabalar kasbiy tayyorgarligi va o‘zlashtirishini yuqori sifat bosqichiga olib chiqish jahon va o‘zbek psixologiyasida dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa. Vatanimiz psixolog olimlari tomonidan olib borilgan yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlarda ilm-fan rivoji, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va bilimli, malakali yetuk kadrlar yetishtirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarador jarayonga aylantirish, o‘quv faoliyatini optimalligini oshirishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarни o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, talabalar kasbiy tayyorgarligi va o‘zlashtirishini yuqori sifat bosqichiga olib chiqish jahon va o‘zbek psixologiyasida dolzarbligicha qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR:

- Jabborov A.M. O‘qituvchi etnopsixologiyasi. “Nasaf” nashriyoti. Q.: 2009 y., - 180 b.
- Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Fan va texnologiya, T.: 2012, - 172 b.
- Maqsadova M.S., Jabborov A.M. O‘qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari. “Nasaf”, Q.: 2009 y., - 76 b.
- Nishonova Z.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Oliy pedagogik o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: 2013 y., - 364 b.
- Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo‘nalishlari. “O‘zbekiston”, T.: 1999 y., - 32 b.
- Rasulov A.I. O‘qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat darajalari. P.f.n. diss. T.: 2001 y., - 177 b.
- Сафоев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Афтор. дисс. док. псих. наук. Т.: 2005 й., - 48 б.
- G‘oziyev E.G. Oliy ta’lim psixologiyasi. “O‘qituvchi”, T.: 1997 y., - 106 b.